

**Do`stlik tumani axborot-kutubxona markazi  
axborot-bibliografiya xizmati**



**14-YANVAR VATAN HIMOYACHILARI KUNIGA BAG‘ISHLAB**

**“VATAN O‘G‘LONLARING ASRAYDI SENI”**

**NOMLI KITOBXONLARGA ESLATMA**



*Har qanday davlatning armiyasi, qurolli kuchlari uning mustaqilligini, xalqning osoyishtaligi va erkini ximoya qilishda muhim rol uynaydi. Zero o‘z istiqlol va ozodligining qadrini bilmaydigan, uni himoya qilolmaydigan bugungi kuch –qurbi yetmaydigan millat hech qachon erkin yashay olmaydi.*

*Sh.M.Mirziyoyev*

“Vatan ostonadan boshlanadi!” Esimizni taniganimizdan yuragimiz, ongimizga mustahkam o‘rnashgan ilk ma’suliyatli tushuncha. Bo‘ning zamirida juda keng ma’no: xonadonimiz, yurtimiz ostonasigina emas, balki kindik qonimiz to‘kilgan tuproq, biz ko‘z ochib ko‘rgan to‘proq, biz ko‘z ochib ko‘rgan ilk dunyo, onamizning mehr bilan aytgan betakror allasi, ona zaminga qo‘ygan birinchi qadamlarimiz va shu aziz diyorning aziz odamlari tinch, osoyishta hayoti ham mujassamdir.

Vatanparvarlik – asrlar va ming yillar mobaynida bir-biridan ayrim yashab kelgan mamlakatlarda mustahkam o‘rnashib olgan eng chuqur xislardan biridir.

Vatanparvarlik –kishilarning ona yurtiga, o‘z vataniga muxabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushunchadir. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u qadriyatlardan biri xisoblanadi.

Tarixiy jixatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq iitimoiv rivoilanish. xalqlarning o‘zlari vashavotgan hududning

daxlsizligi mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ulari jamlanmasi hamdir. Bu vattanning o‘tmishi va hoziri bilan faxirlanishda, uning mafaatlari ximoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanparvarlik xalq ommasiga xos xislat. Mexnatkash xalq ommasining taqdiri Vatan taqdiri bilan uning mustaqilligi va taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Xalq ommasini chet el bosqichlariga va ichki dushmanlarga qarshi, o‘z vatanning go‘llab yashnashi uchun kurashga safarbar qiluvchi buyuk ma‘naviy kuch xisoblanadi. Ijtimoiy xayotning rivojlanishi bilan Vatanparvarlik tushunchasining mazmuni xam o‘zgarib kelgan. Hozirgi jaxon sestemasida haqiqiy Vatanparvar kuch-ishchilar sinfi va mexnatkash xalq ommasi xisoblanadi.

Bugungi istiqlolning ilk yillaridagi ezgu orzu niyatlarining ijobatini amalga oshirilayotgan isloxlarda, xalqimiz millatimizga xos qadriyatlarga uyg‘unlashgan, zamonaviy qurol yaroq va texnika bilan ta‘minlangan, suverenitetimizni, chegaralarimiz daxlsizligini va eng muximi, mustaqilligimizni ishonchli ximoya qilishga qodir professional armiya shakillanayotganida ko‘rish mumkin. Tinchlik osoyishtalik xukum surgan joyda ezgu ishlar xamisha bardavomdir .Bu hayotiy haqiqatni xalqimiz istiqlol yillarida barcha sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlar, jumladan, millatlararo totuvlik, hamjixatlik, olijanoblik va mehr-oqibat kabi insoniy tuyg‘ular har qachongidan yuksak cho‘q-qcho‘qqilarga ko‘tarilib, osmonimiz musaffoligini asrab-avaylash, iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirish yo‘lidagi beqiyos sa‘y-harakatlar misolida yanada teranroq anlab yetmoqda.Ana shu yutuqlarimizda bugungi zamon talablari asosida shakillantirilgan Qurolli kuchlarimizning ham alohida o‘rni bor. Chunki milliy armiyamiz yurtimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va xududiy yaxlitligini ishonchli kafolatidir.

Biz istiqlolga erishishimiz tarixi xaqida so‘z yuritganda, davlat qurilishining g‘oyat muhim va uzviy qismi sifatida aynan

Qurolli kuchlarimizni barpo etish borasida chora-tadbirlar, ezgu tashabbuslarni alohida tilga olamiz.

Ma‘lumki birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1991 yil 6 sentyabrdagi Farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi. Keyinchalik mudofaa vazirligiga aylantirildi. 1992 yil 14 yanvarda mamlakatimiz xududida joylashgan barcha xarbiy tuzilmalar O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga o‘tkazildi. 1993 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga binoan, “14 yanvar-Vatan ximoyachilar kuni ” deb e‘lon qilindi. Mazkur tarixiy xujjatga asosan Vatan ximoyachilar kuni mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlab kelinmoqda.

Birinchi Prezidayentimiz o‘sha yillarda “O‘zining buyuk tarixi va ajdodlariga munosib voris bo‘lgan xalqimiz mamlakat xavfsizligini ta‘minlashga qodir armiyani yarata oladi ” deb katta ishonch bilan aytgan edilar. Haqiqatdan

ham, tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, chegaralarimiz daxilsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiya barpo etildi. Sobiq Ittifoq hududida turli qurolli to'qnashuv va qarama –qarshiliklar yuz berayotgan g'oyat murakkab sharoitda O'zbekiston Qurolli Kuchlariga asos solgani, xech mubolag'asiz aytish mumkin, yosh davlatimizni qurish jarayonida xal etilgan buyuk vazifalardan biri bo'ladi. Aynan milliy armiyamiz mamlakatimizda erkin, ozod va farovon hayot bunyod etish, demokratik islohatlarni samarali amalga oshirish yo'lida ishonchli kafolat, tog'dek tayanch bo'lib kelmoqda.

Mustaqillikning ilk yillarida barcha soxalar kabi xarbiy yo'nalishda ham ko'plab og'ir muammolar to'planib qolgan edi. Avvalo, qushinlarning moddiy-texnik ta'minoti tizimi talab darajasida emas edi. Xarbiy tuzilmalar o'zining qurilishi va jangovor tarkibi buyicha yangi paydo bo'lgan taxdidlar oldida zaif edi. Eng mushkul muammo –malakali xarbiy kadrlar yetishmas edi. Shuning uchun milliy armiyamiz barpo etish va isloh qilish bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiya ishlab chiqildi.

Shu strategiya asosida ixcham, yaxshi ta'minlangan, yuksak jangovar ruhga ega bo'lgan milliy armiyamiz barpo etildi. Qisqa muddatda harbiy okruglar, chegara mintaqalari, shuningdek, jangovar qobiliyatga ega qushin guruhlari, birinchi navbatda, murakkab jangovar operatsiyalarni amalga oshirishga qodir bo'lgan Ichki vazifalar korpusi va maxsus operasyalar bo'yicha kuchlar tashkil etildi.

Milliy armiyamizni professional asosga o'tkazish jarayonida ofiserlarning ishonchli yordamchilari, har qanday vaziyatda ham tashabbuskor hamda samarali qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan serjantlarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalashga katta axamiyat qaratilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy jihozlangan, modellashtirish hamda simulyasiya vositalari, kompyuter texnikasi bilan ta'minlangan serjantlar tayyorlash maktablarida ta'lim olayotgan mutaxassislar askarlar tarkibi uchun nafaqat eng yaqin kichik komandirlar sifatida, balki harbiy jamoalarda sog'lom ahloqiy ruhiy hamda ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Islohotlar jarayonida Qurolli Kuchlar safini to'ldirish, muddatli harbiy xizmatni o'tash tizimi ham tubdan yangilanadi. Jumladan, "Umumiy xarbiy majburiyat va xarbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, harbiy xizmat muddati bir yil etib belgilandi. 2009 yildan e'tiboran muddatli xarbiy xizmatga chaqiruv yiliga bir marta-fevral-mart oylarida amalga oshirilmoqda. Bo'ning natijasida harbiy qism hamda muassasalarda sog'lom muhit yaratildi. Bugungi kunda muddatli harbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlar avvalgi yillardagidan mutloqo farq qiladi. Hozirgi vaqtda mustaqillik yillarida tug'ilib voyaga yetgan, mamlakatimizdagi akademik lisey hamda kasb-hunar kollejlarda eng zamonaviy ta'lim-tarbiva olgan vigitlar armiva saflariga kirib kelmoqda. Ular axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini, xorijiy tillarni puxta biladi. Eng asosiysi, hayot haqida o'zining mustaqil fikri va qarashiga, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga ega.

Bunday salohiyatli yoshlar xalqimizning ishonchli va tayanchidir.



Tinchlik so'zi "Vatanga muhabbat" tushunchasi bilan doimo yonmayon, mazmunan to'kis. Zero, ona yurtni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrash, istiqloli va istiqbolli, osoyishtaligi va farovonligi uchun kurashish bu yo'lda xatto o'z jonini tikish, xaqiyqiy tinchlikparvar ruxida tarbiyalash xar bir o'g'ilning burchidir.

14-YANVAR  
VATAN  
HIMOYACHILARI  
KUNI



ASKAR

Safarda qad kerib turgan ey askar,  
Bilgil, mardni ko'rsa, chekinar xatar.  
Yurakni, bilakni etgil safarbar,  
Gulday diyoringni asra xamisha!

Duosi, so'zlari yodingda tursin  
Nur ingan yuzlari yodingda tursin,  
Mexrli ko'zlari yodizda tursin  
Onaizoringni asra xamisha

Singling bor-tegrangda parvona, xalak  
Og'a-ining esa-mag'rur, dovyurak,  
Chin do'stlaring bo'lar yurakka tirgak  
Qatorda nomingni asra xamisha

Bir kuni omading baxting kuladi  
Uying xam kungling xam fayzga to'ladi  
Bolangga munosib ona bo'ladi-  
Intizor yoringni asra xamisha

Vatan-or timsoli, Vatan –nomus, shon,  
Nomus bilan aziz sanalgay inson.  
Sen o‘rninga qurg‘on, or-senga qurg‘on  
Oringni –boringni asra xamisha!

### **XALQ BILAN ARMIYA**

**Osmoning tiniqdir, bag‘ring osuda,  
Yurtim, yuz chayarsan tongi yog‘duda  
Dunyomiz xamisha tinch bo‘lsin diya,  
Aziz xalqim yashar ezgu orzuda.  
Ajdodlardan meros- qadim tuprog‘ing,  
Jon qadar azizdir bog‘u gulbog‘ing.  
Matonat bog‘ida so‘nmas mayoqdir  
Yovqur Jaloliddin birla Shirog‘ing,  
Yov yaqin yo‘lolmas qurhonlaringga,  
Zog‘lar hech ko‘nolmas bo‘stonlaringga.  
Biz seni jon qadar asraymiz , Vatan,  
Cho‘lg‘anib sharafu ham shonlaringga.  
Sen-bizning faxrimiz ,nomus orimiz,  
Bu yorug‘ olamda dilda brimiz.  
Baxtingni asramoq-chin shiorimiz,  
Xalq bilan armiya-bir tanu bir jon,  
Xalq bilan birgamiz har laxza, xar on.  
Mag‘rur va mardona posbonlarimiz,**

# **Biz sizni asraymiz, Vatan onajon!**

Oddiy askar: Bekzod Abduqodirov

## **SODIQ POSBONMAN**

Men borki, o‘tolmas dushman tog‘lardan,  
Bir tikan uzolmas go‘zal bog‘lardan  
Vatanni asrayman qarg‘a zog‘lardan,  
Men otam Vatanchun qurgan qurg‘onman,  
Muqaddas yurtimga sodiq posbonma,  
Bunda quyosh kulib tonglar otadi.  
Yulduzlar nur sohib kunlar botadi,  
Yer ona allasin tinglab yotadi.  
Men ona mehridan to‘lgan osmonman,  
Ter tukar dalada bobodehqonim,  
Uy turida beg‘am aziz mehmonim.  
Bir kaft tuprog‘iga fido shu jonim,  
Men shoir tilidan uchgan dostonim  
Muqaddas yurtimga sodiq posbonim.  
Kimdir ko‘chat ekar bog‘ bo‘lsin diya,  
Kimdir xirmon uyar tog‘ bo‘lsin diya,  
El tinchiga g‘anim solmasin soya  
Deya qasam ichgan mardu-maydonman,  
Muqaddas yurtiga sodiq o‘g‘lonman,  
Sher bo‘lsa sherdirman yovga tik boqqan,  
Daryoman million yillarki oqqan,



O‘zbekman ilm-fan o‘chog‘in yoqqan,  
Men yurtim erk uchun tutgan qalqonman,  
Muqaddas yurtimga sodiq posbonman.





### Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston milliy ensklopediyasi:2-jild.Beshik-Gidrofizika Tahrir hayati: M.Aminov, B.Axmedov, H.Boboyevva b. “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,2001-704 b.

2.Halimbekov Ibrohim. Vatan oldidagi Muqaddas burchimiz/I.Halimbekov//O‘zbekiston armiyasi.-2015.-№4

3.Ortiqov Shavkat.Milliy armiyamiz-tinch, osuda va farovon xayotimizning mustahkam kafolatidir/Sh.Ortiqov//Xalq So‘zi.-2017.-14 yanvar.-№6.-B.1-4.

4.Ergashov Toxir. Milliy Armiyamiz-g‘ururimiz faxrimiz/T.Ergashov//Vatanparvar.-2018.-13 yanvar.-№2.-B.14.

**5.Матлюбов.Б.А.** Ўзбекистон жамоат тартиби ва хавфсизликни таъминлаш тарихи (Ички ишлар органлари мисолида): Монография/ – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2021 й. – 648 б. **ISBN 978-9943-6344-8-0**

**Tayyorladi:**

**M.Raximova**